

Madyanda



15:00 / 21.11.2021 2525

Muso Madyan yerlariga yetib keldi. U biror kishini tanimas, biror kishi ham uni tanimas edi. Tunda Musoga kim boshpana beradi? U qaerda uxlaydi? Mana shu kabi savollar Musoning boshidan kechsa-da Allohning O'zi madadkor ekaniga zarracha shubha qilmasdi. Muso bir quduqdan mol-hollarini sug'orayotgan odamlar yonida to'xtadi. U yerda odamlarning mollarini sug'orib bo'lishini kutib ikkita qiz o'z qo'ylariga qarab turardi. Rahmdil ota kabi bo'lgan mehribon qalbli Muso ulardan so'radi:

- Nega sizlar qo'ylaringizni sug'ormayapsizlar?

- Biz to odamlar sug'orib bo'lmagunicha qo'ylarimizni sug'orish imkoni yo'q. Chunki ular kuchli, biz esa ojizmiz. Ular er kishilar. Bizlar zaifalarmiz, dedi ular. Muso ulardan go'yoki: Nima uchun xonadoningizdan er kishilar sug'orishmaydimi, deb so'rashlarini bilgandek: «Otamiz keksa chol», deb undan avval aytishdi.

Musoning mehribonligi junbushga kelib, ularni suv bilan ta'minlagan edi, ular jo'nab ketishdi. Xo'sh, endi Muso tunda qaerda yotadi? Qaerda tunaydi? Bu begona shaharda u biror kishini, biror kishi uni tanimaydiku?

«**So'ngra** (bir chetdagi daraxt) **soyasiga borib (o'tirib) dedi:**
«**Parvardigorim! O'zing men uchun nima yaxshilik** (ya'ni rizq) **tushirsang o'shanga muhtojdirman**».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad